

MEDIA SAVODXONLIK VA AXBOROTNING JAMIYATDA TUTGAN O'RNI

Rahimjonova Mahliyo Oybek qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Matematika va informatika fakulteti

Amaliy matematika yo'nalishi 1-kurs talabasi

mahliyorahimjanova644@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada media savodxonlik tushunchasi, ommaviy axborot vositalarining inson hayotidagi o'rni va ularning jamiyatga ta'siri haqida so'z yuritiladi. Bugungi kunda axborot oqimi ortib borayotgan davrda, insonlarning OAV bilan ongli va tanqidiy munosabatda bo'lishi dolzarb masala sifatida ko'rilmogda. Shuningdek, ijtimoiy ongning shakllanishida media vositalarining tutgan o'rni tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: media, mediata'lim, axborot savodxonligi, raqamli texnologiyalar, multimedia, ommaviy munosabatlar, media savodxonlik, axborot madaniyati.

Abstract: This article discusses the concept of media literacy, the role and influence of mass media in human life, and their importance in society. Nowadays, with the rapid growth of information flow, the issue of people's conscious and critical attitude toward media has become increasingly relevant. The article also analyzes the role of media in shaping public consciousness.

Keywords: media, media education, information literacy, digital technologies, multimedia, mass communication, media literacy, information culture.

Bugungi kunda media jamiyat hayotining ajralamas qismiga aylangan. U insonlar o'rtasida aloqalarni mustahkamlash, axborot almashinuvi va global madaniyat shakllanishida asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Media bu – biz axborot qabul qilishimiz mumkin bo'lgan barcha vositalar . Media so'zi lotincha “medium” so'zdan olingan bo'lib , vosita, vositachi degan ma'nolarni bildiradi.[1] Bu atama keng tushuncha bo'lib, o'z ichiga aloqa vositalari, axborot uzatish usullarini, shuningdek, ular hosil qiladigan muhitni o'z ichiga oladi. Media hozirgi vaqtda ma'lum bir iste'molchiga axborot xabarini u yoki bu shaklda yetkazish uchun xizmat qiluvchi vosita. U turli xil ko'rinishda bo'lishi mumkin. Masalan, matn, musiqa, tasvir ko'rinishida bo'ladi. Media bizga birinchi navbatda ommaviy axborot vositalarini anglatadi. Ommaviy axborot vositalari kitob, jurnallar, gazetalar, televideniya, radio va internetni qamrab oladi. Ommaviy axborot vositalari nafaqat xabar yetkazadi, balki insonlarning tafakkur tarzini, ijtimoiy munosabatlarini, siyosiy qarashlarini va hatto shaxsiy odatlarini shakllantiradi. Bugungi kunda media atamasidan mass-media tushunchasining sinonimi sifatida foydalaniladi.

Media savodxonlik - insonlarga turli media shakllarini va xabarlarini tahlil qilish, baholash va ayratishga imkon beradigan ko'nikmalar to'plami.[2] Har kuni millionlab ma'lumotlar inson ongiga ta'sir qilmoqda. Ularning aksariyati manipulyatsion xarakterga ega bo'lishi mumkin. Shu sababli insonlar yolg'on, noto'g'ri yoki noto'liq ma'lumotlarni aniqlash va ualrdan himoyalaniishi uchun tanqidiy fikrlashga ega bo'lishi kerak. Qaysi manba ishonchli, qaysi manbada noto'g'ri ma'lumot tarqatish mumkinligi media savodxonligi yuqori bo'lgan inson osongina bilishi mumkin. Boshqacha aytganda, media savodxonlik bu - tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini ommaviy axborot vositalari orqali uztiladigan xabarlar va belgilarga qo'llash qobiliyati. Ommaviy axborot vositalari iste'molchilarini tanqidiy tahlil qilish uchun ularda media savodxonlik ko'nikmalari va odatlarini bolalikdan rivojlantirishi kerak bo'ladi. Bu ko'nikmalarga ommaviy axborot vositalariga bazaviy darajada kirish, uni muayyan tushunchalar asosida tahlil qilish, shu tahlil asosida baholash va nihoyat, ommaviy axborot vositalarini o'zi ishlab chiqarish kiradi. Media

savodxonligi ko'nikmalari o'rganishning ushbu jarayoni media ta'lim jarayoni deb ataladi. UNESCO odamlarning tanqidiy fikrlash va to'g'ri qaror qabul qilish darajasini yaxshilash uchun ommaviy axborot vositalari va media savodxonlikni rivojlantirishni qo'llab quvvatlaydi.[3] Axborot madaniyati bu insonning axborot mavjudligiga erkin kirishiga imkon beradigan yangi aloqa turi. Axborot madaniyatining ajralmas qismi yangi axborot texnologiyalarini bilish va uni oddiy operatsiyalarini avtomatlashtirish uchun ham, noan'anaviy ijodiy yondashuvi talab qiladigan favqulotta vaziyatlarda ham qo'llash qobiliyatidir.[4] Bu madaniyat raqamli savodxonlik bilan chambarchas bog'liq. Inson o'ziga kerakli axborotni topish, uni tahlil qilish, tahrir qilish va ulashish bo'yicha zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Ayniqsa, o'quvchilar, talabalar va pedagoglar uchun bu ko'nikmalar o'quv jarayonining muhim tarkibiy qismidir. Ijtimoiy tarmoqlar yoshlar hayoting ajralmas bo'lagiga aylangan. Facebook, Telegram, Instagram, TikTok kabi platformalarda ular fikr almashadi, o'rganadi, o'zini ifoda etadi. Biroq bu tarmoqlarda noto'g'ri axborot, stereotiplar, salbiy kontentlar va yolg'on yangiliklar ham tarqalmoqda. Mediada aks ettirilgan obrazlar, stereotiplar, zo'ravonlik va boshqa salbiy ta'sirlar yoshlarning ruhiy holatiga, axloqiy mezonlariga va kelajakdagi qarorlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli yoshlar orasida media madaniyat va media etikani rivojlantirish dolzarb masala hisoblanadi. Shuning uchun yoshlarimizda media ong tushunchasi shakllanishi kerak. Media ong bu jamiyatdagi shaxslar va guruhlar tomonidan qabul qilinadigan ideologik, ijtimoiy va madaniy tasvirlarning shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir o'tkazadi. Media ong asosan ommaviy axborot vositalaridan keladigan ma'lumotlar orqali shakllanadi.[5] Ommaviy axborot vositalari tomonidan taqdim etiladigan tasvirlar, xabarlar va tahlillar jamiyatda muhim qarorlarni qabul qilishda fikrlar va munosabatlarning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Ommaviy axborot vositalarining maqsadi faqat xabar yetkazish emas balki o'zgaruvchan jahon sharoitida odamlarning ongini shakllantirishdir. Bu vositalar odamlarga yangi g'oyalar va fikrlarni taqdim etib, ularning dunyo qarashini kengaytiradi.

Media savodxonlikni rivojlantirishning eng samamrali yo'li -bu media ta'limni joriy etish. Media ta'lim orqali yosh avlodni axborot manbalaridan to'g'ri tanlay olish, ularni tahlil qilish va o'z fikrini asoslab ifoda etish ko'nikmalariga o'rgatish mumkin.[6] Bu nafaqat maktab va oliy o'quv yurtlarida , balki ommaviy ravishda aholining barcha qatlamlari uchun ham dolzarbdir.

Xulosa qilib aytganda, media savodxonlik bugungi kunda har bir fuqaro uchun zarur bo'lgan kompetensiyalardan biridir. U insonlarni mustaqil fikrlashga, tanqidiy yondashuvga, to'g'ri qarorlar qabul qilishga undaydi. Media vositalari hayotimizning ajralmas qismiga aylangan bir davrda, ularni ongli va samarali tarzda boshqarish har bir insonning axborot madaniyatiga bog'liq. Shunday ekan, yoshlar orasida media savodxonlikni rivojlantirish, ijtimoiy tarmoqlarda ongli ishtirok etishni ta'minlash va axborot madaniyatini shakllantirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. B.S.Abdullayeva ,Y.Z.Ro'ziyev, K.V.Ismoilova "Media savodxonlik va axborot madaniyati", Toshkent-2024.
2. A.Mahmudov. "Axborot erkinligi va demokratiya". Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti.
3. Media and Information Literacy: Policy and Strategy Guidelines-UNESCO Publishing, 2013 (asosiy manba sifatida qaraladi).
4. I.Qodirov. "Axborot texnologiyalari" Toshkent:FAn va texnologiyalar nashriyoti.
5. N.To'xtayev. Axborot jamiyati va uning ijtimoiy asosi. Toshkent, 2021.
6. B.S.Abdullayeva, Y.Z.Ro'ziyev, K.V.Ismoilova. Media savodxonlik va axborot madaniyati. Toshkent, 2024.

7. D.R.Turg'unpo'latov. Ta'limning raqamli transformatsiyasi: ilm va texnologiya asosida o'qitishning yangi eposi. "Science time" international scientific journal. 3 (1). 90-95-betlar.

8. D.R.Turg'unpo'latov. Globallashuv jarayonida talaba-yoshlarning intellektual imkoniyati: muammo, taklif hamda yechimlar. "Globallashuv jarayonida talaba-yoshlarning intellektual imkoniyati: muammo, taklif hamda echimlar" (Namangan), 2021, 156-158-b.

9. Д.Р.Турғунпўлатов. О.О.Абдуллаева. Ўқув жараёнининг самарадорлигини оширишда интернет тармоқлари орқали коммуникатив таълим дарсларни ташкил этишнинг ўзига хос хусусиятлари. "O'zMU xabarleri" Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti ilmiy jurnali. 2022, 1/6/1, 27-29-б.

[10. www.unesco.org](http://www.unesco.org)

[11. www.mediaeducation.org](http://www.mediaeducation.org)